

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ KODEKSIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RSIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 14-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 15-dekabrda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modda, № 10, 593-modda, № 11, 652-modda, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modda, № 4, 294-modda, 4-songa ilova, № 8, 800-modda, № 9, 901-modda, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 6-modda to'qqizinchi qismining 1-bandidagi "Davlat soliq qo'mitasi" degan so'zlar "Vazirlar Mahkamasi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) 17-moddaning:

birinchi qismi quyidagi mazmundagi 5¹-band bilan to'ldirilsin:

"5¹) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i";

uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imni hamda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Kodeks bilan tartibga solinadi";

3) 59-moddaning birinchi qismi 1-bandining birinchi xatboshisidagi "muassasalari" degan so'z "tashkilotlari" degan so'z bilan almashtirilsin;

4) 75-modda quyidagi mazmundagi o'n birinchi qism bilan to'ldirilsin:

"Soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshiriladi";

5) 76-modda quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin:

"Soliq solish maqsadlarida hisobga olishga nisbatan soliq organlarining axborot tizimlaridan majburiy foydalanishga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniqlanadigan tartibda belgilanishi mumkin";

6) 78-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirilsin:

"Foydali qazilmalarni qazib olish uchun maxsus renta solig'ini to'lovchi bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq hisobini soliq solish maqsadida hisoblash usuli bo'yicha AQSh dollarida yuritishga haqli";

7) 97-moddaning sakkizinchi qismi "ariza berishga" degan so'zlardan keyin "yoxud bu haqda xabardor qilishga" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

8) 98-moddaning birinchi qismi quyidagi mazmundagi 5-band bilan to'ldirilsin:

"5) shaxs ushbu Kodeks 100-moddasi ikkinchi qismining 32-bandini bo'yicha yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan bo'lsa";

9) 100-moddaning:

ikkinchi qismi quyidagi mazmundagi 3²-band bilan to'ldirilsin:

"3²) agar manfaatdor shaxs (tadbirkorlik subyekti) ushbu Kodeks 101-moddasining birinchi qismiga binoan soliq to'lashni kechiktirish huquqi to'g'risidagi xabarnomani yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch oy ichida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan

mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tganligining qayd raqamini va sanasini ko'rsatgan holda soliq organlariga yuborgan bo'lsa”;

oltinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Agar soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati ushbu modda ikkinchi qismining 3, 3¹, 4, 5 va 6-bandlarida va (yoki) to'rtinchi qismida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra berilgan bo'lsa, kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash davrida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda, ushbu modda ikkinchi qismining 3²-bandi bo'yicha soliqlarni to'lash kechiktirilgan kundan e'tiboran qarz summasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foizlar hisoblanadi. Ushbu moddaning ikkinchi qismi 3²-bandida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra foizlar soliqlarni to'lash kechiktirish bo'yicha qarz summasiga nisbatan kechiktirish davrida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foiziga teng stavkadan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Bunda, soliqlarni manfaatdor shaxs tomonidan to'lashni kechiktirishning amal qilish muddati soliq organiga xabarnoma yuborilgan sanadan e'tiboran hisoblab chiqariladi, kechiktirilgan soliqlar summasi esa, muddati tugagan oyidan keyingi oyidan boshlab kechiktirish muddati tugaganidan so'ng amal qilish muddati tugagan sanadan e'tiboran kechiktirilgan soliq summasi hisoblangan foizlar bilan birga teng ulushlarda o'n ikki oy ichida to'lanadi”;

10) **101-moddaning:**

birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risidagi ariza manfaatdor shaxs tomonidan tegishli vakolatli organga beriladi. Tadbirkorlik subyektlari (bundan davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar, yer qa'ridan foydalanuvchilar va aksiz osti mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar mustasno) umumiy maydoni bir ming kvadrat metrdan ortiq bo'lgan yer uchastkalariga va (yoki) binolar hamda inshootlarga bo'lgan mulkiy huquq olinganda ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 7 va 8-bandlarida ko'rsatilgan soliqlarni to'lashni taqdim etilgan xabarnoma asosida xabardor qilgan holda va garov ta'minotisiz olti oy muddatga kechiktirish huquqiga ega. Bunda kechiktirilgan soliqlar summasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yer uchastkalarining, binolarning va inshootlarning qiymatidan va (yoki) maydonlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan soliqlar miqdorida belgilanadi”;

o'n to'qqizinchi qismi quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirilsin:

“Agar soliq to'lovchi tomonidan yuborilgan xabarnoma ushbu Kodeks 100-moddasi ikkinchi qismining 3²-bandida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq bo'lmasa, soliq organi uch kundan kechiktirmay soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha kechiktirish uchun asoslar mavjud emasligi to'g'risida xabarnoma yuboradi”;

11) 102-moddaning **uchinchi qismi** quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirilsin:

“Yer uchastkalar, binolar va inshootlar soliq to'lovlarini to'lashni kechiktirish muddati davrida realizatsiya qilingan yoki ijaraga berilgan taqdirda, ushbu Kodeks 100-moddasi ikkinchi qismining 3²-bandida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra kechiktirish summasi bir oy ichida to'liq miqdorda undiriladi”;

12) **105-modda:**

quyidagi mazmundagi yettinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida aniqlanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ortiqcha to'langan (ushlab qolingan) summasi soliq to'lovchi bo'lgan jismoniy shaxsga, uning soliq hisobida turgan joyidan qat'i nazar, uning soliq organiga taqdim etgan arizasi asosida qaytariladi”;

yettinchi va **sakkizinchi qismlari** tegishincha sakkizinchi va to'qqizinchi qismlar deb hisoblansin;

13) **132-modda:**

quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Soliq to‘lovchi soliq organlarining ma‘lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan o‘z hisob ma‘lumotlarini soliq organining so‘roviga ko‘ra soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali tasdiqlashi kerak”;

beshinch qismi oltinchi qism deb hisoblansin;

oltinchi qismi “ma‘lumotlarini yuritish” degan so‘zlardan keyin “soliq to‘lovchilar tomonidan ularni tasdiqlash” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

14) 138-modda:

quyidagi mazmundagi ikkinchi — yettinchi qismlar bilan to‘ldirilsin:

“Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o‘tkazishi mumkin.

Tekshiruvdan oldingi tahlil — taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir.

Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘isiz amalga oshiriladi.

Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma yuboriladi.

Soliq to‘lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma olingan kundan e‘tiboran o‘n kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Bunday majburiyatning bajarilmaganligi soliq organi tomonidan soliq to‘lovchida kameral soliq tekshiruvini tayinlash uchun asos bo‘ladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlagan sanadan e‘tiboran yakunlangan hisoblanadi”;

ikkinchi — o‘n sakkizinchi qismlari tegishincha sakkizinchi — yigirma to‘rtinchi qismlar deb hisoblansin;

o‘n beshinchi qismidagi “o‘n kunlik muddatda” degan so‘zlar “besh kun ichida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

yigirma ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan soliq davri uchun soliq hisoboti taqdim etish chog‘ida soliq organlari qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) to‘g‘risida xabardor qilingan kundan e‘tiboran oltmish kun ichida soliq organining buyrug‘isiz, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq hisobotiga o‘zgartishlar kiritish haqidagi talabnoma yozib berilmaydi”;

15) 182-moddaning **oltinchi qismidagi** “Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasdiqlaydi” degan so‘zlar “Vazirlar Mahkamasi belgilaydi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

16) 195-moddaning **sakkizinchi qismidagi** “Davlat soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar “Vazirlar Mahkamasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

17) 197-moddaning **ikkinchi qismidagi** “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Vazirlar Mahkamasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

18) 199-moddaning **beshinch** qismidagi “Davlat soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar “Vazirlar Mahkamasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

19) 220-moddaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Soliq hisobotini o‘z vaqtida taqdim etmaganlik uchun soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to‘lovchi bo‘lgan jismoniy shaxs ma‘muriy javobgarlikka

tortiladi”;

20) 223-modda:

uchinchi qismi quyidagi mazmundagi o'n beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“qazib olingan foydali qazilmalar hajmining soliq hisobotida to'liq aks ettirilmaganligi”;

quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Hisobvaraqa-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida olingan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga yoxud faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga va amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo'lmagan identifikatsiya kodlarini aks ettirish —

hisobvaraqa-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida ko'rsatilgan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi”;

21) 242-moddaning **oltinchi qismi** “aloqa xizmatlari” degan so'zlardan keyin “moliyaviy va sug'urta xizmatlari” degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

22) 243-modda **birinchi qismi**:

11-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tibbiy xizmatlar (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Ushbu bandning maqsadida tibbiy xizmatlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi”;

14-bandining:

birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek budget tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan jismoniy tarbiya va sportga doir xizmatlarni. Ushbu bandning maqsadida”;

“b” **kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) budget tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan jismoniy tarbiya va sport xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo'yicha o'quv guruhlari hamda jamoalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishga oid xizmatlar, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarini, sport-tomosha tadbirlarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish kiradi”;

23) 244-modda birinchi qismi **1-bandining**:

birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1) bank operatsiyalari, bundan qiymati qat'iy summada belgilangan xizmatlar mustasno, xususan”;

to'rtinchi xatboshisidagi “ochish hamda” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

sakkizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bank kafolatlarini bajarish (bank kafolati bo'yicha to'lov)”;

o'ninchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar va to'lovlar”;

24) 259-moddaning **ikkinchi qismi** chiqarib tashlansin;

25) 266-modda:

birinchi qismining **5-band** “bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno” degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

ikkinchi qismi “bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno” degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Agar soliq to‘lovchi oxirgi bir yil davomida valyuta tushumlarini o‘z vaqtida ta‘minlab kelayotgan va eksport shartnomalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorligi bo‘lmagan intizomli soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan bo‘lsa, eksport qilinadigan tovarlar uchun ishlatilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) soliq summasi soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat’i nazar hisobga olinadi. Tovarlarni “eksport” bojxona rejimi ostida chiqarilgan kundan e‘tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida valyuta tushumi yoki uning bir qismi soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga kelib tushmagan taqdirda, hisobga olingan soliq summasi yoki uning tegishli qismi belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi”;

uchinchi — o‘n to‘rtinchi qismlari tegishincha to‘rtinchi — o‘n beshinchi qismlar deb hisoblansin;

26) 269-moddaning **birinchi qismi** quyidagi mazmundagi 5-band bilan to‘ldirilsin:

“5) ushbu tovarlar soliq organlarida hisobga qo‘yilmagan shartnomalar asosida ijaraga olingan yoki bepul foydalanilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarida saqlanganda”;

27) **274-modda:**

ikkinchi va uchinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Soliq to‘lovchi o‘rni qoplanishi lozim bo‘lgan soliq summasini qaytarishga doir soliq hisobotini taqdim etishda soliq organlarini bu haqda xabardor qilgan holda, soliqning salbiy summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) uchun murojaat qilish huquqiga ham ega bo‘ladi.

Agar kameral soliq tekshiruv natijalariga ko‘ra, soliq organi soliq summasining o‘rnini to‘liq yoki qisman qoplash to‘g‘risida qaror qabul qilsa, mazkur soliq summasi soliq to‘lovchiga soliq hisobotini taqdim etishda soliq summasini qaytarish haqida soliq organlari xabardor qilingan sanadan e‘tiboran oltmish kundan kechiktirmay qaytariladi”;

to‘rtinchi qismining:

birinchi xatboshisidagi “bu haqda soliqni qaytarish to‘g‘risidagi arizada ko‘rsatilgan” degan so‘zlar “soliq hisobotini taqdim etishda soliq organlarini xabardor qilgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2-bandidagi “soliqni qoplashga doir ariza” degan so‘zlar “soliq hisoboti” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Soliqning o‘rnini tezlashtirilgan tartibda qoplashda soliq to‘lovchi tomonidan qaytarish uchun soliq hisobotida ko‘rsatilgan soliq summasining o‘rni unga yetti kun ichida to‘liq hajmda qoplanadi. Bunda o‘rni qoplanishi uchun soliq hisobotida ko‘rsatilgan soliq summasi asoslantirilganligining kameral soliq tekshiruv umumiy tartibda amalga oshiriladi. Agar kameral soliq tekshiruv natijalariga ko‘ra soliq hisobotida o‘rni qoplanishi uchun ko‘rsatilgan soliq summasi yoki uning bir qismi asossiz bo‘lib chiqsa, soliq to‘lovchi soliqning o‘rni o‘ziga asossiz ravishda qoplangan summasini qoplash sanasidan to uni budjetga to‘lash sanasigacha penya hisoblangan holda budjetga to‘lashi shart”;

28) 284-modda ikkinchi qismining **1-bandidagi** “bundan aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

29) 289¹-moddaning **birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan